

INSON va qonun

2023-YIL
25-IYUL
SESHANBA

№ 29 (1389)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT"

"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!



www.adolatmarkazi.uz

telegram.me/hudud24official/

facebook.com/hudud24official/



HUQUQIY ZAKOVAT – BILIMDONLAR BELLASHUVI

17-18 iyul kunlari bo'lib o'tgan "Huquqiy zakovat" intellektual o'yinining final bosqichida adliya organlari va muassasalari, vazirlik markaziy apparatidan jami 24 ta jamoa ishtirok etdi. 12 ta savoldan iborat 6 ta tur, jami 72 ta savol orqali o'yin g'olibi aniqlandi.

Birinchi turdagi o'yinga kirishish, moslashish kayfiyati keyingi turlarda yaqqol jadallik – bahsmunozara, tortishuvlar, bilimdonlar kurashiga almashdi. Shiddatli tortishuv va bahslarga boy ke-

chgan musobaqada Toshkent davlat yuridik universiteti jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi. Shunday bo'lsa-da, qolgan jamoalarni ham jo'shqinlik, g'alabaga intilish kayfiyati tark etgani yo'q. Chunki

shuncha bosqichni bosib o'tishning, mag'zi ayyorona qolip ichiga yashiringan savollarni yengib o'tishning, yiqilib, qoqilib, yana turib soniyalarda uchib o'tayotgan jumboqlar qarshisiga chiqishning o'zi bo'lgani yo'q. Shu sabab g'alaba nashidasini ballar hisobida yuqori natijaga erishgan ko'plab jamoalar birdek tatidi. Eng muhimi, o'yin bahona adliya xodimlari orasida do'stona aloqalar, yakdillik, yelkama-yelka safdosh-

lik, maslakdoshlik, fikrlar va bilimlar almashish ko'nikmasi rivojlandi. A'lo kayfiyat, tafakkur, motivatsiya va shirin charchoq bilan o'yin yakunlandi.

"Huquqiy zakovat" intellektual o'yini Prezident qarori va adliya vazirining "Adliya vazirligi tizimida "Zakovat intellektual o'yini"ni tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi 2023-yil 23-iyundagi buyrug'i asosida tashkil etildi.

O'z muxbirimiz

2 QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR

Hozirgi davrda ayollarga nisbatan zo'rvonlik va tazyiq ommalashayotgan huquqbuzarlik va jinoyat sifatida yildan-yilga yangicha ko'rinishlarda uchrab turibdi. Ayniqsa, bu kabi huquqbuzarliklar keyingi vaqtda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng avj olayotganiga tez-tez guvoh bo'layapmiz. Bu kabi huquqbuzarlik va jinoyatlarining asosiy jabrdiydalari xotin-qizlar bo'layotgani achinarlidir.



XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI – DAVLAT HIMOYASIDA

Internet uchun mavzu bo'layotgan zo'rvonlik holatlari ortida aslida qanchadan-qancha jabrdiyda qalblar, qancha qorako'zlar, ularning ko'z yoshlari bor. Bunday holatlarning oldini olish, xotin-qizlarning sha'ni, qadr-qimmatini himoya qilish maqsadida ularning huquqlarini himoya qilish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rilmogda. Qonun hujjatlari amaliyotga tatbiq etilmogda. Biroq aksariyatimizning loqaydligimiz, oilaviy munosabatlarga ikki kishining o'ta shaxsiy ishi deb qarashimiz sababli tazyiq va zo'rvonliklar soni kun sayin ortib bormogda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvarda qabul qilingan "Davlat boji to'g'risida"gi qonuniga o'zgartirish kiritildi. Mazkur o'zgartirishga ko'ra, qonunning 8-moddasi quyidagi mazmundagi 51-band bilan to'ldirildi. Unga binoan, tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga yetkazilgan ma'naviy va moddiy zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan davlat boji to'lanmasligi belgilandi. Sodda qilib aytganda, "Davlat boji to'g'risida"gi qonunning 8-moddasi 51-bandiga muvofiq, jabrlangan xotin-qizlar fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga ariza berishda davlat bojini to'lashdan ozod etildi.

Kiritilgan ushbu o'zgartirishlarga ko'ra, xotin-qizlarga nisbatan zo'rvonliklarning quyidagi turlari mavjud bo'lib, ushbu holatlar yuzasidan ular tomonidan sudga da'vo arizasi kiritilsa, davlat bojini to'lashdan ozod etiladi.

Xotin-qizlarga nisbatan zo'rvonliklar jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralarini qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik) lar sanaladi. Keyingi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlar orqali juda ko'p tilga olinayotgan jinoyatlardan biri – uyatli video va foto tasvirlarni ijtimoiy tarmoqda tarqatmaslik evaziga haq talab etish holatlarining ko'payib borayotganligidir. Bu esa xotin-qizlarning jamiyatdagi hayoti va oilaviy munosabatlariga jiddiy putur yetkazmogda.


Bugun ijtimoiy tarmoqlar orqali ommaga tarqatlayotgan axborotlar ichida xotin-qizlarga nisbatan amalga oshirilayotgan tazyiqlar ham o'z aksini topayotgani achinarlidir. Bu jarayon nafaqat mamlakatimiz, balki butun millatning oldidagi eng og'riqli holatlardan biridir. Bunday ko'ngilsizliklarning oldini olishimiz, buning uchun qo'limizdan kelgan barcha ishni qilishimiz kerak!

Mamlakatimiz taraqqiyotida, jamiyat hayotida, oilalar mustahkamligida xotin-qizlarning o'rnini va ahamiyati katta. Yurtimizda xotin-qizlar jamiyatning barcha sohalarida samarali faoliyat yuritmogda. Qonunlarimizda nazarda tutilgan gender tenglikni ta'minlash esa ko'proq sizni bizga bog'liqdir aslida.

Mirkarim OMONOV,

Sariosiyo tumani adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

Ta'lim sohasini isloh qilish mamlakat rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekistonning yangi qiyofasi ta'lim sohasidagi ijobiy o'zgarishlar bilan ham hamohangdir. Nogironligi bo'lgan bolalar ta'limida dunyoning ilg'or tendensiyalari asosida bir qator islohotlar amalga oshirilayotgani ham alohida e'tiborga loyiq.



BOLA TA'LIMGA EMAS, TA'LIM BOLA IMKONIYATLARIGA MOSLASHTIRILADI

Mamlakatimizda bola huquqlarini himoya qilishning qonuniy asoslari yaratilib, bir qator qonunlar qabul qilindi va ularda bola huquqlari kafolatlab qo'yildi. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunida bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish va boshqa qator ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega vazifalarni amalga oshirish kafolatlab qo'yilgan.

Bugungi kunda har qanday davlatning rivojlanishi nogironligi bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limni tashkil etish sifati bilan ham baholansmogda. Inklyuziv ta'lim – (inklyuziya – inglizcha inclusion – uyg'unlashish) hamkorlikdagi ta'lim bo'lib, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va samarali ta'lim sifatida tan olingan.

Inklyuziv ta'limning bosh g'oyasi quyidagi strategiya orqali tashkil etiladi: "Zamonaviy maktabda bola ta'limga emas, ta'lim bola imkoniyatlariga moslashtiriladi". Shu bois, Prezidentimizning 2017-yil 1-dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qa-

rori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar mazmunida aholining ehtiyojmand qatlamlariga ta'lim xizmatining moslashgan turlarini, differensial yondashuvlarga asoslangan tizimini joriy etish belgilab qo'yilib, mamlakatimizda bu borada keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasida ta'lim sohasiga doir ilg'or konstitutsiyaviy normalar ham o'z aksini topdi. Konstitutsiyaning 50-moddasida "Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi", deb belgilab qo'yildi.

Bu esa davlat siyosati bo'lib, bolalarning qobiliyatlarini va holatidan qat'iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etish, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayonini yanada takomillashtirish konstitutsion norma-niing asosiy maqsadi va mazmuni hisoblanadi hamda alohida ajralib turuvchi bolalarga erta yoshlaridanoq ularning jamiyatdagi o'rnini va jamiyatda to'liq ishtirokini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Demak, inklyuziv ta'lim doirasida olib borilayotgan islohotlar alohida ehtiyojli bolalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, umumta'lim muassasalarida to'laqonli ta'lim olishlarini ta'minlash bilan birga ta'lim muassasalarida har bir bola uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib beradi. Bular bolalarning uydin maktabga qatnovini, dars jarayonlarida o'zini qulay his qilishi, o'quv fanlarini o'zlashtirish vositalariga egaligi, darsdan tashqari paytlarda o'z qiziqishlari doirasida faoliyat bilan mashg'ul bo'lish imkoniyatlariga egaligi hamda salomatligiga hech bir xavfning mavjud emasligini qamrab oladi.

Bu borada xorij tajribasi ham o'rganilmoqda. Jumladan, "Fransiyaning nogironlik va inklyuziv ta'lim sohasida kadrlar tayyorlash va ilmiy-tadqiqot instituti INSHEA vakillari delegatsiyasi Jizzax pedagogika instituti tomonidan inklyuziv ta'lim mavzusida tashkil etilgan seminar ishtirok etib, seminar davomida fransiyalik ekspertlar inklyuziv ta'lim mohiyati, imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim jarayoniga jalb etish, Fransiya-dan nogironlar vakolatlariga o'zaro hamkorlik masalalariga to'xtalib o'tdi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'limga bo'lgan e'tibor alohida ehtiyojli bolalarga ta'lim olish imkoniyatlarini yaratib berish bilan bir qatorda jamiyatga sezilarli darajada moddiy va ma'naviy foyda keltiradi.

Noila MUSTAFOYEVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi



Xorazmlik fuqaro G.B. 2021-yilda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va texnologiyalar universitetining qishloq xo'jaligi menejmenti yo'nalishini davlat granti asosida tugatgan. Ammo oliy ta'lim muassasasi o'sha paytda bitiruvchiga ishga yuborilganlik to'g'risidagi yo'llanma hamda taqsimot komissiyasi qaroridan va taqsimot ro'yxatidan, diplomning asl nusxasidan ko'chirma bermagan.

BITIRUVCHIGA TUSHOV BO'LGAN diplom



Ma'lumki, "Kadrlarni davlat grantlari asosida maqsadli tayyorlash tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan, barcha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha davlat grantlari asosida tahsil olgan oliy ta'lim muassasalari bakalavr va magistr lari 2005/2006-o'quv yilidan boshlab majburiy tartibda kamida uch yil ishlab berish sharti bilan ta'lim muassasalariga, korxonaga va tashkilotlarga ishga taqsimlanishi belgilangan. Nizomning 15-bandida esa agar taqsimot komissiyasi bitiruvchini ish bilan ta'minlay olmasa, unga mustaqil ishga joylashish imkoniyati berilgani to'g'risida ma'lumotnoma taqdim etishi ko'rsatib o'tilgan.

G.B. tomonidan Samarqand viloyat adliya boshqarmasiga yo'llangan murojaat o'rganilganda, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining 2021-yil 23-maydagi 7-sonli bayonnomasida fakultetlar bitiruvchilarini ishga joylashtirish bo'yicha grafik tuzilgani, ammo mazkur grafikda qishloq xo'jaligi menejmenti fakulteti ko'rsatilmagani va oqibatda fakultet bitiruvchilarini ishga taqsimlash ishlari amalga oshirilmagani aniqlandi.

Sudda G.B. universitet mas'ullari fuqaroning murojaatlariga bir xil javob, ya'ni uni ishga joylashtirish maqsadida Xorazm viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasiga yuborishganini, diplomning asl nusxasi uch yil ishlab bergandan keyin berilishini ro'kach qilib kelganini bayon qilib, Xorazm viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish

boshqarmasi mas'ullari esa fuqarodan yuqorida keltirilgan hujjatlarni talab qilib, universitet uni ishga joylashtirish uchun yo'llanma yubormaganini ma'lum qilganini ta'kidladi.

Bundan tashqari, universitet yuqorida keltirilgan nizom talablari bo'yicha unga mustaqil ishga joylashish imkoniyatini ham bermagan. Hatto, u Italiyadagi "Tor Vergata" universitetining magistratura bosqichiga qabul qilinganida ham, diplomning asl nusxasini so'rashgani bols, xorij universitetida o'qish imkoniyatidan mahrum bo'lgan. Sababi, universitet mas'ullari vazir o'rinbosarining 2022-yil 12-sentabrda xati bilan istisno tariqasida diplomning asl nusxasini berishni so'rab yozgan xatini ham inobatga olmagan. Universitet vakili sudda bu vajrlarni tan olmasligini ma'lum qilib, go'yoki uning da'vosi asossiz ekanini bildirgani kishini taajjublantiradi.


Fuqarolik ishlari bo'yicha Samarqand shahar sudi Fuqarolik protsessual kodeksining 249-253-moddalarini qo'llab, viloyat adliya boshqarmasining fuqaro manfaatini ko'zlab kiritgan da'vo talabini qanoatlantirdi. Xususan, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining G.B.ga nisbatan xatti-harakatlarini g'ayriqonuniy deb topdi hamda fuqaroga diplomning asl nusxasini berish majburiyatini yukladi.

ESLATIB O'TAMIZ,

"Kadrlarni davlat grantlari asosida maqsadli tayyorlash tartibi to'g'risida"gi nizomning 17-bandiga ko'ra, oliy ta'lim muassasasi taqsimot komissiyasi ishi tugagandan so'ng bir haftadan, biroq bitiruvchi o'qishni tugatgan kundan so'ng uch kundan kechiktirmay, ishga yuborilayotgan har bir bitiruvchiga oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomdan ko'chirma, ishga yuborilganlik to'g'risidagi yo'llanma hamda taqsimot komissiyasi qaroridan va taqsimot ro'yxatidan ko'chirmani berishi shart.

Shuningdek, ushbu band bilan, mustaqil ishga joylashish imkoniyati berilgan bitiruvchilarga mazkur bandda nazarda tutilgan muddatlarda mustaqil ishga joylashish imkoniyati berilgani to'g'risida ma'lumotnoma va oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomning asl nusxasi berilishi, oliy ta'lim muassasasi rektori mazkur bandda ko'rsatilgan hujjatlarni bitiruvchiga o'z vaqtida berilishiga shaxsan javobgarligi, bitiruvchiga belgilangan nusxadagi yo'llanma o'rniga boshqa hujjatlar berilishiga ruxsat etilmasligi nazarda tutilgan.

Rustam AHROROV,
Samarqand viloyat adliya boshqarmasi
mas'ul xodimi



Karmana tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan Qiziltepa tuman adliya bo'limining "Tayanch qurilish servis" mas'uliyati cheklangan jamiyati manfaatini ko'zlab 620 million 934 ming 717 so'm pul mablag'ini budjetdan qaytarish to'g'risidagi da'vo arizasini ko'rib chiqildi.

SALKAM 621 million soliq to'lovi TADBIRKORGA QAYTARILDI

Ish hujjatlaridan hamda sud muhokamasida aniqlanishicha, Navoiy viloyat davlat soliq boshqarmasi tomonidan "Tayanch qurilish servis" MCHJ bilan "Inspiration", "Albityeks Lyuks", "Siyob Diller Sarmoya", "Tulqin Super Business", "Blumberg", "Elegant Exciting", "Destroy and Build", "Gold Premium Grand", "Self Employed Road", "Enactor" va "International Building Materials" mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining **4 milliard 771 million 184 ming 843 so'mlik** bitimlari qalbaki, ko'zbo'yamachilik uchun tuzilgan deb topilgan.

Ko'zbo'yamachilik uchun tuzilgan deb topilgan bitim doirasida rasmiylashtirilgan hujjatlar bo'yicha 620 million 934 ming 717 so'm qo'shimcha qiymat solig'i bo'yicha hisobotga tuzatish kiritish to'g'risida 2021-yil 8-aprel kuni soliq boshqarmasi tomonidan xulosa tuzilgan.

Soliq kodeksining 14-moddasi sakkizinchi qismida, ushbu moddada ko'rsatilgan huquqni suiiste'mol qilishning, bitim qalbakiligi holatlarini aniqlash, shuningdek, ularning oqibatlarini qo'llash soliq organlari tomonidan, soliq to'lovchi norozi bo'lgan taqdirda esa, soliq organlarining da'vosi bo'yicha sud tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

Soliq kodeksining 138-moddasiga asosan kameral soliq tekshiruvi soliq to'lovchi (soliq agenti) tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotini, moliyaviy hisobotni, shuningdek soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida soliq organida mavjud bo'lgan boshqa hujjatlar hamda ma'lumotlarni tahlil qilish asosida soliq organi tomonidan o'tkaziladi.

Javobgar – viloyat davlat soliq boshqarmasining 2021-yil 8-apreldagi kameral soliq tekshiruvida aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar materiallarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha tuzilgan mazkur xulosada da'vogar tomonidan 2020-yil yanvar-dekabr oylari davomida tuzilgan bitimlar qalbaki tuzilgan bitim sifatida e'tirof etilib, 620 million 934 ming 717



so'm qo'shimcha qiymat solig'i hisoblangani ko'rsatilgan.

Vaholanki, viloyat davlat soliq boshqarmasi tomonidan kameral tekshirish o'tkazishdan oldin 2021-yil 10-fevralda "Tayanch qurilish servis" mas'uliyati cheklangan jamiyatining shaxsiy hisob varaqasiga qo'shimcha qiymat solig'i hisoblanib kiritilgan va undirilgan. Jamiyatning pul mablag'larini qaytarish bo'yicha qilgan murojaatlari e'tiborsiz qoldirilgan.

Soliq kodeksining 103-moddasi birinchi qismiga ko'ra, soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha to'langan yoki undan ortiqcha undirilgan soliq summasi soliq to'lovchining qarzi bo'lmagan taqdirda shu soliq to'lovchiga qaytarilishi yoxud ushbu soliq bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobiga inobatga olinishi lozim.

Shunga ko'ra, sud viloyat davlat soliq boshqarmasi tomonidan "Tayanch qurilish servis" mas'uliyati cheklangan jamiyatidan 620 million 934 ming 717 so'mni asossiz ravishda undirilgan deb topdi va ushbu pul mablag'i tadbirkorlik subyektiga qaytarilishi belgilandi.

Bezkod JUMAYEV,
Karmana tumanlararo iqtisodiy
sudi sudyasi

4 MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA

QORAQALPOG'ISTON

To'rtko'l tumanida yashovchi fuqaro G.M. tuman tibbiyot birlashmasida 1 stavkada hamshira lavozimida ishlagan. Tibbiyot birlashmasi boshlig'ining 2020-yil 5-noyabrda buyrug'iga asosan, 2022-yil 27-avgust kuniqacha farzandi ikki yoshga to'lgunga qadar bola parvarishi ta'tili berilgan.

HAMSHIRANING
HUQUQI TIKLANDI

Biroq 2022-yil 10-oktabr kuni ish beruvchining buyrug'i bilan 1 stavkadan 0,75 stavkalik ishga tushirilgan. Bundan norozi bo'lgan hamshira tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.

Murojaat yuzasidan o'tkazilgan o'rganish natijasida xodim G.M. tuman tibbiyot birlashmasi 2-jarohlik bo'limiga 1 stavka hamshira lavozimiga tiklanib, xodimning huquqi himoya qilindi.

Qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'yg'an shaxslarning intizomiy javobgarlik masalasi hal etildi.

Bekpo'lat AVAZMETOV,

To'rtko'l tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

SIRDARYO



“Mirzacho'l Agro Qurilish Loyiha” MChJ va Sirdaryo tuman obodonlashtirish boshqarmasi o'rtasida 2022-yil 6-dekabrda qurilish ishlarida loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlab berish uchun 152 million 461 ming so'mlik shartnoma tuzilgan bo'lib, MChJ tomonidan shartnomada belgilangan ishlar bajarilib, loyiha-smeta hujjatlarini qabul qilish dalolatnomasi imzolangan.

OBODONLASHTIRISH
BOSHQARMASISHARTNOMA
MAJBURIYATINI
BAJARMAGAN

Biroq, obodonlashtirish boshqarmasi bajarilgan ishlar uchun 45 million 738 ming 300 so'm to'lovni amalga oshirgan, xolos. Qolgan 106 million 772 ming so'm mablag' to'lab berilmagan.

MChJ rahbari D. Fayzullayevning ushbu qarzdorlikni undirishda amaliy yordam so'rab qilgan murojaati Sirdaryo tuman adliya bo'limi tomoni-

dan o'rganildi.

O'rganish davomida aniqlanishi-cha, taraflar o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan ish to'liq bajarilganidan keyin 5 kun ichida to'lovning qolgan 70 foizi to'lanishi belgilangan. MChJ tomonidan ish to'liq yakunlangan bo'lsa-da, obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilmagan.

“Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi qonunning 7-moddasiga asosan xo'jalik shartnomasi taraflari tuzilgan xo'jalik shartnomalari bo'yicha zimmlariga olingan majburiyatlarni o'z vaqtida va tegishli tartibda bajarishi shart.

Shuningdek, mazkur qonunning 32-moddasida yetkazib berilgan tovarlar, ishlar, xizmatlar haqini o'z vaqtida to'lamanlik uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'lashi belgilangan.

O'rganish natijalariga ko'ra, adliya bo'limi tomonidan tadbirkor manfaatida Sirdaryo tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi. To'plangan hujjatlar asosida ish xolisona ko'rib chiqilib, sud qarori bilan Sirdaryo tuman obodonlashtirish boshqarmasi hisobidan “Mirzacho'l Agro Qurilish Loyiha” MChJ foydasiga 106 million 772 ming so'm asosiy qarz, 6 million 500 ming so'm penya undiriladigan bo'ldi.

Shaxboz ISMOILOV,

Sirdaryo tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

ANDIJON

Andijon viloyat adliya boshqarmasi tomonidan “And billur sanoati” mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Z. Abdulazizovning murojaati o'rganib chiqildi.

Va'da qilingan
yer tadbirkorga
berilmadi

O'rganishda, Andijon shahar hokimligi va MChJ o'rtasida tuzilgan kelishuv shartnomasiga asosan jamiyat tomonidan Andijon shahar hududida yashovchi uy-joyga muhtoj oilalar uchun Xo'jaobod tumanining “Mustaqillikning 27 yilligi” mahallasi hududida 10 ta uy-joy qurib berilgan.

Mazkur kelishuv shartnomasiga asosan jamiyat tomonidan qurib berilgan 10 ta uy-joy evaziga hokimlik tomonidan jamiyatga 1 gektar yer maydoni ajratib berilishi kafolatlangan.

Biroq, mahalliy hokimlik tomonidan jamiyatga yuqorida ko'rsatilgan shartnomaga asosan ajratib berilgan 1 gektar yer maydoni amal-dagi qonunchilik hujjatlariga rioya etmagan holda ajratilgani natijasida jamiyat rahbari yer maydonini ham, qurib berilgan uy-joylarning pulini ham ololmagan.

Shunga ko'ra, jamiyat tomonidan qurilgan uy-joylarga qilingan xarajatlar hisob-kitob qilinib, Andijon shahar hokimligidan jamiyat foydasiga 1 milliard 246 million 789 ming 590 so'm undirilishi yuzasidan Andijon tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi.

Sud qarori bilan jamiyat foydasiga shahar hokimligidan 1 milliard 246 million 789 ming 590 so'm undirilishi belgilandi.

Alisher HASANOV,

Andijon viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

SAMARQAND

“IKKI ESHIK ORASI” DAN
yana noqonuniy foydalanishdi

Samarqand viloyat adliya boshqarmasiga kelib tushgan murojaat yozuvchi O'tkir Hoshimovning asarlariga daxldor. Yozuvchining merosxo'ri hisoblangan fuqaro F. Hoshimov meros huquqi bo'yicha o'ziga tegishli bo'lgan “Ikki eshik orasi” kitobining kontrafakt nusxalari sotilayotgani to'g'risida xabar bergan.

Ma'lum bo'lishicha, yakka tartibdagi tadbirkorga tegishli savdo shoxobchasida mazkur asarning “Ilim-ziyozakavat” hamda “Meriyus” nashriyotlarida chop etilgan kontrafakt nusxalari sotilib kelingan. Murojaat asosida olib borilgan o'rganish chog'ida mazkur qonun buzilishi o'z tasdig'ini topdi.

Viloyat adliya boshqarmasi tadbirkorga ushbu asarning kontrafakt nusxalarini sotuvdan olib tashlash haqida taqdimnoma kiritdi va ko'rilgan ta'sir choralarini natijasida murojaat qanoatlantirildi.

Eslatib o'tamiz, “Mualliflik huquqlari va turdosh huquqlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga ko'ra, yuridik va jismoniy shaxslar, qonunda ko'rsatilganidan

tashqari hollarda, asardan faqat huquq egasi yoki boshqa vakolatli shaxs bilan tuzilgan shartnomaga binoan foydalanishlari mumkin.

Adliya organlarining bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalari ijrosini ta'minlamaslik, shu jumladan, o'z vaqtida yoki to'liq bajarilmaslik, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 198-moddasiga binoan ma'muriy jarima solishga sabab bo'ladi va taqdimnomani bajarish majburiyatidan ozod etmaydi.

Mazkur asardan noqonuniy foydalanish holati avval ham aniqlangan.

Mansur HASANOV,

Samarqand viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

Bugun zamon, yo'q, aslida zamon emas, odamlar, ularning ma'naviyati, hayotga munosabati, turmush tarzi salbiy tomonga o'zgardi. Axir chilimxonalarda tonggacha qolib ketgan qizini tergash o'rniga unga tanbeh berib qo'yishini so'rab kelgan uchastka noziriga "menga aql o'rgatishga nima haqqing bor, seni ishdan oldiraman!" deb o'shqirgan, yoki maktabdagi behayo xulq-atvorli axloqsiz o'smir qizchasini tartibga chaqirmoqchi bo'lgan o'qituvchini kaltaklagan otalarning bolalaridan nimani kutish mumkin?

Odamlar isnod degan narsani unutib qo'ymadimi? Barcha illatlarning sababi ham aslida ana shunda. Illatlarning ildizi esa, bu ko'rguliklarga ko'nikish, uni hazm qilish, jazolash o'rniga, odatiy hol deb qarashga o'rganib qolayotganimizda emasmi-kan? Bu ham yetmaganidek, jamiyatga isnod keltirayotganlarning homiysiga aylanib borayotgandekmiz. Sud zalida o'n besh kunlik chaqalog'ini sotayotgan qizning jinoyat ishi ko'rilayotganda qilingan "insonparvarlik"ni ko'rib shunday xulosaga keldik.

Ona degan nomga noloyiq bo'lgan bu "adashgan" qiz xotin-qizlar qo'mitasining kafolat xati bilan sud zalidan ozod qilindi. Farzandfurushning qo'llariga kishan solish o'rniga o'sha "sotilgan" chaqalog'ini qaytarib berishdi. (Qaniydi insonparvarlikning bunday yuksak namunasi ba'zan aybsiz aybdorlar temir panjara ortiga kirganda ham qo'llanilganida edi...) Afsuski, bunday mehribonlikdan bu toifadagi jinoyatlar kamaymadi. Aksincha, jamiyatda bir emas, ikkita, hatto uchta bolani dunyoga keltirib, ularni sotishdan qo'rqmaydigan axloqsizlar paydo bo'ldi.

Mana, yolg'iz ona niqobidagi yovuz onalardan biri – 22 yoshli Zamira Shokirova.

ESSIZ, ONA DEGAN NOM

"Sayoq yursang, tayoq yeysan" degan gap to'g'ri. Zamira ham sayoq yurib...



Keyingi vaqtlarda ijtimoiy tarmoq lentalarida zo'ravonlik, beshafqatlik, behayollik lavhalarini ko'raverib, ko'zimiz qotib ketdi. Avvallari biror oilaning o'g'li yoki qizi nojo'ya ish qilsa, ota-onasi va qarindosh-urug'lari mahallada bosh ko'tara olmay qolardi, butun umr yuzi qora bo'lib o'tardi.

YOLG'IZ ONA niqobidagi orsiz qiz

U turmushga chiqmasdan 3 nafar farzandga ona bo'ldi, ammo birortasiga ham onalik qilmadi. O'z ori, o'z nomusini sotgani yetmayotgandek, o'z dilbandini ham pullashdan qaytmagan bu ayol ona degan nomga noloyiq.

U birinchi bolasiga homilador bo'lgach, qishloqdan, ota uyidan chiqib ketdi. 2017-yilning sentabr oyida o'g'il farzand dunyoga keldi. Norasida farzandiga onalik qilishdan bosh tortdi, o'ziga talpinib turgan murg'ak go'dakdan voz kechish haqida ariza yozib berdi. Shifokorlar bolani Navoiy shahridagi vasiylik va homiylik organiga topshirishdi. U hozir qaysidir mehr-muruvvatli bir oilaning chirog'i, dilbandiga aylangan.

"Ko'r hassasini bir marta yo'qotadi" degan maqol ham behuda ketdi. U oradan bir yil o'tib ikkinchi farzandni dun-

yoga keltirdi, otasiz tug'ilgan bu qizaloqhi ham tug'uruqxonadayoq xuddi o'sha vasiylik va homiylik organi xodimi ixtiyoriga topshirganida ham tosh yuragi qilt etmadi. Ikkinchi norasida ham boshqalarga farzand bo'ldi. Bolalarning taqdiri uni qiziqirtmadi. Biror marta na pushaymon, na iztirob chekmay yashayotgan bu toshbag'irning mana endi uchinchi farzandi ham otasiz tug'ildi. Unga yolg'iz ona sifatida hujjat rasmiylashtirildi, FHDY organi orqali guvohnoma olib berildi. Ammo qalbi-da bolasiga zaracha mehr uyg'onmadi, shafqat topilmadi. Bu bolani ham sotish fikri xayolini egalladi.

TUZOQQA TUSHDI

Zamiraning yana farzandlik bo'lganini eshitgan dugonasi Mashhura Hoshimova tug'uruqxonaga uni ko'rgani keldi. U dugonasi-ning o'tmishdagi sirlaridan, boladan voz kechish "san'ati"dan xabardor edi. Shuning uchun dugonasi-dan xabar olish bahonasida balki uning o'ziga yarasha

shum niyati, puxta rejasi ham bor bo'lgandir? Bunisi bizga qorong'u. Mashhura shu orada uni ko'rishga Nodira ismli tanishi bilan kelib, ularni bir-biriga tanishtirib qo'yd. Nodira insongarchilik uchun yolg'iz ekan deb Zamiradan hol-ahvol so'rab turdi. Suhbatlarda "adashgan qiz" unga Navoiy shahrida ijarada yashab kelayotgani, bu sharmandalikdan so'ng ota uyiga, qishloqqa qaytib borolmasligini aytib kasalxonadan chiqqanidan so'ng boradigan joyi va bolasini boqish uchun imkoniyati yo'qligini, oldin tug'ilgan 2 bolasini ham vasiylik organi orqali boshqa fuqarolarga berib yuborganini, bu farzandini ham birorta fuqaroga berishi mumkinligini bildirdi.

Bu gaplardan xabardor dugonasi unga "agarda tug'uruqxonadan chiqqaningdan so'ng boradigan joying bo'lmasa, vaqtincha Nodira opani uyida yashab tursang bo'ladi" deb aytib qoldi. Zamira Nodiraga qo'ng'iroq qilib, uning uyiga borishga qaror qildi. Nodira-

xonning samimiy, mehribon ayolligidan foydalanib, unga kelgusida bu bolani boqa olmasligini, na yashashga joyi, na farzandini boqishga puli yo'qligini aytib, qizini birorta boqib oladigan kishi bo'lsa sotib yuborishini aytdi.

Nodira uning so'zlarini eshitib, uni bu qabih yo'ldan qaytarmoqchi bo'ldi, unga "bolani sotish gunohi azim, katta jinoyat" ekanligini ta'kidladi. Shunda Zamira unga "opa, men avvalgi ikkita farzandimni ham sotib yuborgan edim, hech narsa bo'lmadi-ku, bu farzandimni ham oladigan odam chiqsa 700 AQSH dollariga sotaman, menga hozir kiyim-kechak va telefon olishim uchun pul kerak" deb aytgandan so'ng Nodira unga unda qizingni menga bersang, o'zim katta qilib olaman, 3 million so'm atrofida pulim bor, shu pulni berishim mumkin" degan taklifni bildirdi. U bu nonko'rayolning yana bir norasidadan voz kechmasligini istagandi. Afsus... Zamira bir oylik chaqalog'ini sotishga rozi bo'lganidan so'ng uning jinoyi qilmishlariga chek qo'yish maqsadida ichki ishlar idoralarini bu "savdo"dan xabardor qilib qo'yd.

Uchinchi bolasidan ham osongina voz kechgan "ona" kelishilgan joyda, savdola-shilgan pulni olib, dugonasi bilan bozorga ketayotganda viloyat ichki ishlar boshqarmasi hamda viloyat bojxona boshqarmasi xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazilgan tezkor tadbir davomida inkor etib bo'lmas dalillar bilan qo'lga olindi. Farzandfurush ayol o'z jinoyatini tan olishga, qilmishidan pushaymon ekanligiga iqror bo'lishga majbur bo'ldi.


Jinoyat ishlari bo'yicha Navoiy shahar sudi sudlanuvchi Z. Shokirovaning qilinishini odam savdosi, ya'ni o'z farzandini sotishdek mudhish jinoyat sifatida qayd etdi va unga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

Agar Nodira Hasanova bu haqda Navoiy viloyat ichki ishlar boshqarmasi xodimlariga o'z vaqtida ma'lum qilmaganida, bu noshukur banda yana bir bolaning uvuliga qolishi, kim biladi, balki yana bunday jinoyatlarning nechtasiga qo'l urishi mumkin edi.

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri



6 SUD ZALIDAN



Yangi konstitutsiyaviy qoida DA'VONI QANOATLANTIRISHGA ASOS BO'LDI

Prezidentimiz mahalla raislariga, faollariga hamisha yuksak ishonch bildirib keladi. Eng muhimi, ularning amin-erkin ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilgan. Davlatimiz rahbarining 2020-yil 18-fevralda imzolagan "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ham ana shu maqsadga qaratilgan. Mazkur farmonning 28-bandini (ushbu band Prezidentning 2021-yil 18-oktabrdagi 6324-sonli farmoni asosida o'z kuchini yo'qotgan)da 2020-yil 1-iyuldan fuqarolarning o'zini o'zini boshqarish xodimlari lavozim maoshiga 30 foiz miqdorida ustama to'lanishi belgilangan.

Marg'ilonlik yurtdoshimiz Muxtorjon Bo'ronov o'zi yashaydigan mahalla fuqarolar yig'ini raisi vazifasida ishlagan. Biroq bundan 3 yil avval butun dunyoni "zabt etgan" koronavirus pandemiyasi davrida – 2020-yil iyul oyidan 2021-yil sentabr oyiga qadar unga har oyda ish haqiga qo'shimcha ustama to'lanmagan. Vaholanki, o'sha sinovli kunlarda, ayniqsa, mahalla fuqarolar yig'inlari raislari fidoyilik ko'rsatib, mehnat qilishdi.

Buni qarangi, M. Bo'ronov shaharda ish haqiga ustama ololmagan yagona

MFY raisi emas ekan. Marg'ilon shahar hokimligi undan boshqa mahalla raislariga ham Prezident farmonida belgilangan ustamani to'lamagan. Shu bois, shahar adliya bo'limi tomonidan Muxtorjon aka singari fuqarolar yig'ini raislari manfaatini ko'zlab, fuqarolik ishlari bo'yicha Marg'ilon tumanlararo sudiga da'vo arizalari kiritildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki,

mazkur da'volar bo'yicha adolatli qaror qabul qilishda sud yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga tayandi. Uning 20-moddasida "O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan o'zaro huquq va majburiyatlar bilan bog'liqdir. Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz

mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas. Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi. Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak. Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi" deya qayd etilgan. Ana shu asoslarga tayangan sud da'voni qanoatlantirib, Marg'ilon shahar hokimligidan M. Bo'ronov foydasiga 6 million 370 ming 986 so'm ustama to'lovini undirish yuzasidan qaror qabul qilindi. Umuman olganda, sud tomonidan 39 nafar mahalla oqsqoqlari va xodimlariga 30 foizlik ustama hisobiga jami 293 million 98 ming 777 so'm mablag' undirib berildi.

Shu tariqa yangi konstitutsiyaviy qoida da'vog'arlar foydasiga xizmat qiladi.

O'tkirjon ISMOILOV,
fuqarolik ishlari bo'yicha Marg'ilon tumanlararo sudi sudyasi

YONG'IN XAVFSIZLIGI OYLIGI



Yong'in xavfsizligi oyligi doirasida Chilonzor tuman favqulodda vaziyatlar bo'limi tomonidan ham yurttularimizning mol-mulkularini yong'indan asrashga qaratilgan tavsiya va ko'rsatmalar berib borilmoqda. Shu ma'noda aytganda, tuman FVB avtotransport egalari va haydovchilarni ogohlantiradi.

AVTOMOBILINGIZNI yong'indan asrang!

Ta'kidlash joizki, transportdagi yong'in kutilmaganda sodir bo'lishi va juda tez tus olishi bilan xavfli. Xo'sh, bunday vaqtda nima qilish kerak?

Aslida, avtomobillarda yong'in kelib chiqishining sa-

bablari juda ko'p. Amaliyotda eng ko'p uchraydiganlari bu – elektr simlarining qisqa tutashuvi hamda yonilg'ining sizib chiqishidir. Benzin va dizelda harakatlanuvchi avtomobillarda yonilg'i sizib chiqishini darhol payqash

qiyin. Agar dvigatel sovuq holatda bo'lsa, yonilg'i hidini salonda ham sezish mumkin. Ammo dvigatel qizib turgan holda yonilg'i juda tez bug'lanadi va uni sezish mushkul. Benzin bug'lari alanganish xususiyatiga ega. Bu esa juda kichik uchqun ham yong'inga sabab bo'lishini anglatadi.

Siqilgan gaz balloni o'rnatilgan avtomobillarda asosan gaz ballonlaridagi texnik nosozlik, yorilish, reduktor va gaz quvurchasining ishdan chiqishi oqibatida ko'p miqdorda yonuvchi gaz tashqariga otilib chiqadi. Bu o'z navbatida yonish va portlash xavfini yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, ayrim hollarda salonda chekish, yengil alan-galanuvchi moddalarni tashishdagi e'tiborsizlik oqibatida ham yong'in sodir bo'lishi mumkin. Shunday ekan, transport vositasida yong'in sodir bo'lganda quyidagi tavsiyalarga amal qiling:

- ☑ har qanday holda ham vahimaga tushmaslik lozim;
- ☑ avtomobilni yo'ning chetki qismiga, imkon boricha odamlar va binolardan uzoqroq joyda to'xtating;

- ☑ dvigatelni o'chiring, "qo'l tormozi"ni ishlating va "101" raqami orqali yong'in-qutqaruv qismiga xabar qiling;
- ☑ yong'in o'chog'ini va yong'in ko'lamini baholashga harakat qiling.

Agar yong'in o'chog'i yonilg'i baki yoki gaz ballonida bo'lsa, undan uzoqlashish kerak. Bunday yong'inni o'chirishga urinish xavfli. Qutqaruvchilar yetib kelgunicha yong'inni boshqa avtomobillar hamda binolarga o'tib ketishining oldini olish va insonlar xavfsizligini ta'minlash lozim. Agar yong'in o'chog'i avtomobilning dvigatel qismida bo'lsa, uni mustaqil o'chirishga harakat qilish mumkin. Kapot qizigan bo'lishi va uni ochishda kuyib qolish ehtimoli bor. Bundan tashqari, kapotning ochilishi ichkariga kislorod kirib, yong'inni yanada avj olishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, yong'in o'chirgichni shay holatga keltirib, mato bilan kapotni ochish tavsiya etiladi.

Yong'in o'chirgichni olovga to'g'rilab ishlatish, boshqa yo'lovchi va haydovchilarni ham yordamga chaqirish

lozim. Yong'inni o'chirishda tuproq, qor, ariq-suvlaridan ham foydalanish mumkin.

Bundan tashqari, yong'in joyini kiygiz, odeyal, brezent, kurтка va boshqa havo o'tkazmaydigan mato bilan yopish mumkin. Faqat mato zich yopilishi kerak. Aks holda yong'in yanada kuchayadi.

Hech bir avtomobil yong'in va boshqa favqulodda vaziyatlardan to'liq muhofaza etilmagan. Yong'in yuzaga kelishi uchun uchta element – yonuvchi modda (yonilg'i, jihazlar va b.q.), yondiruvchi manba (elektr toki, yuqori harorat kabi) va kislorod talab etilib, ushbu "yong'in uchburchagi"ning barcha elementlari avtomobillarda mavjud. Kichik nosozlik ham yong'inga sabab bo'lishi hech gap emas. Shu sababli, transport vositalarini texnik soz holatda boshqarish, harakat davomida hushyorlikni yo'qotmaslik, avtomobilda birlamchi yong'in o'chirish vositalari bo'lishini ta'minlash lozim.

Azizbek QODIROV,
Chilonzor tumani Favqulodda vaziyatlar bo'limi profilaktika va nazorat bo'linmasi inspektori

Samarqand viloyat adliya boshqarmasi tomonidan "Tug'ilganlikni qayd etish bilan bog'liq kompleks davlat xizmatlarini ko'rsatishning Ma'muriy reglamenti"ga asosan viloyatdagi tibbiyot muassasalarida davlat xizmatini ko'rsatish tartibi va muddatlariga rioya etishning ahvoli o'rganildi. O'rganishlar chog'ida bir qator qonun buzilishi holatlariga yo'l qo'yilgani ma'lum bo'ldi.

DAVLAT XIZMATI KO'RSATISH TALABLARI TIBBIYOT MUASSASALARIGA TAALLUQLI EMASMI?

Qonunchilik talablariga ko'ra, bola tug'ilgan joydagi tibbiyot muassasasi xodimi bola tug'ilgandan so'ng 1 ish kuni ichida bola va unga beriladigan familiya, ism va ota ismi, ota-ona va ularning nikohi haqidagi ma'lumotlarni tegishli axborot almashinuvi tizimiga kiritishi hamda FHDY bo'limi tomonidan tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvini belgilangan tartibda qayd etib, QR-kod (matrik shtrixli kod) qo'yilgan tug'ilganlik haqidagi ma'lumotnomani tibbiyot muassasasiga yuborgandan so'ng, uni ariza beruvchilarga chop etib berishi belgilangan. Biroq tibbiyot muassasalari tomonidan ushbu talablarga amal qilinmagan.

Jumladan, Bulung'ur tuman tibbiyot birlashmasi 20 ta ana shunday holatda nafaqat bir kun, balki 3 kungacha muddat buzilishiga yo'l qo'ygan. Shuningdek, o'rganish davomida mas'ul xodim xonasida 20 ga yaqin fuqarolarning (ota-onalar) pasportlari va boshqa ma'lumotlar tizimga kiritish uchun "O'zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik pasporti to'g'risida Nizom" talablariga zid ravishda saqlanib kelinayotgani aniqlandi.

Xususan, Ishtixon tuman tibbiyot muassasasi tomonidan fuqaro A.N. 2022-yil 9-may kuni farzandli bo'lgan bo'lsa-da, tug'uruq bo'limi mas'ul xodimi tug'ilishni elektron tizimda 2022-yil 13-may kuni qayd etgan. Bu kabi qonunbuzilishlar Jomboy, Qo'shrabot, Narpay, Oqdaryo, Payariq, Pastdarg'om, Samarqand tumanlarida ham takrorlangan.

Bundan tashqari, tibbiyot muassasalari tomonidan tug'ilishni qayd qilishda fuqarolardan ortiqcha hujjatlar talab qilinganlik holatlari ham ma'lum bo'ldi. Bu tug'ilishni qayd qilish bilan bog'liq davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonida Samarqand shahridagi 1, 2, 3-sonli tug'uruq majmualarida 100 dan ortiq holatda takrorlangan.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan "O'limni qayd qilish bilan bog'liq kompozit davlat xizmatlarini ko'rsatishning Ma'muriy reglamenti"ga asosan, davlat xizmatini ko'rsatish tartibi va muddatlariga rioya etish ahvoli o'rganilganda mazkur reglamentning 6-bandi va 2-ilova talablariga amal qilinmagani ma'lum bo'ldi.

Masalan, Jomboy tuman tibbiyot muassasasi tomonidan "Holvoyi" mahallasida yashagan mar-

hum S.A. 2023-yilning 11-may kuni vafot etgan bo'lishiga qaramay, o'lim haqida ma'lumotnoma elektron tizimga 2023-yilning 15-may kuni, ya'ni 4 kundan so'ng kiritilgan. "Samarqand" mahallasida yashagan marhum F.I. esa joriy yilning 21-mart kuni tibbiyot birlashmasida vafot etgan. Ammo bu haqidagi ma'lumot 9 kunga kechiktirilib elektron tizim orqali FHDYo bo'limiga yuborilgan. Xuddi shu kabi kamchilik Narpay, Oqdaryo, Payariq, Pastdarg'om, Paxtachi tumanlari hamda Samarqand shahar tibbiyot muassasalaridagi 136 ta holatda takrorlangan.

Bundan tashqari, marhum haqida QR-kod (matrik shtrixli kod) qo'yilgan o'lim haqidagi ma'lumotnoma o'rniga qo'lda to'ldirilgan tibbiy guvohnoma yoki boshqa hujjat berilgani ko'plab tibbiyot muassasalarida qonun talablariga panja orasidan qaralayotganini bildiradi. Jumladan, Jomboy tuman tibbiyot muassasasi tomonidan joriy yilning 1-may kuni fuqaro B.E.ning uyida vafot etgani haqida elektron tizimda shakllantirilmagan (qog'oz shaklidagi tibbiy guvohnoma) o'lim haqida tibbiy guvohnoma shu yilning 12-may kuni rasmiylashtirilib, marhumning qarindoshlariga FHDY bo'limiga murojaat qilishi uchun berilgan. Bunga o'xshash holatlar Samarqand shahar tibbiyot birlashmasi va uning tarkibidagi 1, 3, 4, 5, 7, 9, 10-sonli oilaviy poliklinikalar tomonidan 200 dan ortiq o'limni qayd etish bilan bog'liq davlat xizmatlarini ko'rsatishda ham takrorlangan.

Qolaversa, tibbiyot birlashmalarida o'lim haqidagi tibbiy ma'lumotnoma berish markazlashgan holda yo'lga qo'yilgani, ya'ni tumanlarda ma'lumotnomani faqatgina markaziy tibbiyot birlashmasi berishi, joylardagi oilaviy shifokorlik punktlari va oilaviy poliklinikalarda ma'lumotnoma berish tizimi joriy qilinmagani aniqlangan.

Bu Nurobod tuman markazidan 110 kilometr uzoqlikdagi "Sahoba", "Tutli", "G'ubdin" mahallalari, Qo'shrabot tuman markazidan 70 kilometr uzoqda joylashgan "Jonbuloq" kabi mahalla fuqarolarining vafot etgan shaxsga o'lim haqidagi ma'lumotnomani olish uchun uzoq masofa bosib tuman markaziga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Samarqand viloyat adliya boshqarmasi davlat xizmatlari ko'rsatilishi ustidan nazorat qilish sho'bas



- Maktabning xo'jalik mudiriga necha kun ta'til beriladi? 56 kalendar kunmi yoki 27 kalendar kunmi? Shu haqda to'liqroq ma'lumot bersangiz?

Xo'jalik mudiriga NECHA KUN TA'TIL BERILADI?

- 2023-yil 26-iyunda Vazirlar Mahkamasining "Pedagog xodimlar uchun yillik uzaytirilgan mehnat ta'tili davomiyligi me'yorlarini belgilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 263-sonli qarori tasdiqlandi. Mazkur qarorning ilovasida direktor, ijrochi direktor, uning o'rinbosarlari (ma'muriy-xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, xo'jalik mudiridan tashqari), direktor maslahatchisi, maktab maslahatchisi uchun yillik asosiy uzaytirilgan ta'til davomiyligi 56 kalendar kundan iborat ekanligi belgilangan. Lekin bu, o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, ma'muriy-xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, xo'jalik mudirlariga tegishli emas.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi o'rtasida 2023-2025-yillar uchun tuzilgan tarmoq kelishuvini o'rganib chiqamiz. Afsuski, ushbu tarmoq kelishuvida umumta'lim maktablarining ma'muriy-xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, xo'jalik mudirlari uchun ta'tillar davomiyligi belgilanmagan.

Unda qanday tartibda va qanday davomiylikka ta'til beriladi? Bu holatda Mehnat kodeksining 13-moddasi birinchi qismiga ko'ra, "Mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda xodimlar uchun mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilanganiga nisbatan qo'shimcha huquqlar va kafolatlarda nazarda tutilishi mumkin".

Ushbu kodeksning 219-moddasiga ko'ra, har yilgi qo'shimcha ta'tillar quyidagi xodimlarga beriladi:

- ☑ kodeksning 481-moddasiga muvofiq mehnat sharoitlari noqulay ishlarda band bo'lgan xodimlarga;
- ☑ kodeksning 483-moddasiga muvofiq noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ish bajarayotgan xodimlarga;
- ☑ kodeksning 220-moddasiga muvofiq bitta tashkilotda yoki tarmoqda ko'p yillik ish stajiga ega bo'lgan xodimlarga;

☑ qonunchilikda, jamoa kelishuvlarida, shuningdek, jamoa shartnomasida, ichki hujjatlarda, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan boshqa hollarda beriladi.

Yuqoridagi qonunchilik normalarida keltirilgan talablarga e'tibor qaratilgan bo'lsak, biz umumta'lim maktablari ma'muriy-xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, xo'jalik mudirlari uchun ta'tillarni jamoa kelishuvlari, jamoa shartnomalari, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra qabul qilinadigan ichki hujjatlarga asosan berishimiz mumkin. Shu jumladan, ish beruvchi o'z vakolatlari doirasida yakka o'zi qabul qiladigan yakka tartibdagi huquqiy hujjatlarda Mehnat kodeksining 217-moddasida belgilanganiga qaraganda ko'proq davomiyligini belgilashi yoki ayni shu muddadagi ta'tilning eng kam davomiyligiga qo'shimcha tarzda qo'shimcha ta'tillar berishi mumkin.

Masalan, jamoa shartnomasida asosiy uzaytirilgan ta'til 27 kalendar kun deb belgilansa (qo'shimcha ta'tilsiz), bu xodimning 27 kalendar kundan iborat ta'tiliga Mehnat kodeksining 220-moddasiga ko'p yillik staji uchun, agarda noqulay mehnat sharoitida ishlashi ish o'rinlari attestatsiyasiga ko'ra belgilangan bo'lsa, 481-moddadagi va noqulay iqlim sharoitida joylashgan hududda ishlasa, Vazirlar Mahkamasining qarori bo'yicha 483-moddadagi qo'shimcha ta'tillarni berishimiz mumkin.

Agarda jamoa shartnomasida eng kam ta'til 21 kalendar kun deb belgilansa, deylik 6 kundan iborat qo'shimcha ta'til belgilansa, unda bu xodimning 21 kalendar kundan iborat ta'tiliga Mehnat kodeksining 220-moddasidagi ko'p yillik staji uchun, agarda noqulay mehnat sharoitida ishlashi ish o'rinlari attestatsiyasiga ko'ra belgilangan bo'lsa, 481-moddadagi ta'tilni berishimiz mumkin. Xodim agar noqulay iqlim sharoitida joylashgan hududda ishlasa, Vazirlar Mahkamasi qarori bo'yicha 483-moddadagi va 219-moddaning uchinchi qismiga ko'ra, jamoa shartnomasidagi qo'shimcha ta'tillarni berishimiz mumkin.

222-moddaning ikkinchi qismiga ko'ra, barcha hollarda qonunchilik bilan belgilangan ta'tillarni jamlashda ularning davomiyligi bir ish yili uchun ellik olti kalendar kundan oshib ketishi mumkin emas.

Savolga adliya bo'limi Marg'ilon shahar adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti Sherzod TOLIBOV javob berdi

E'OLON

Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 12-iyuldagi 170-um-son buyrug'i bilan adliya boshqarmasi tomonidan advokatlar Ibragimov Yaxyojoy Yaqubovich (litsenziya AN 000081, 19.12.2018-yil) va Iminov Sirojiddin Abdulxoshim o'g'lining (litsenziya AN 000277, 06.11.2020-yil) advokatlik maqomlari tiklandi.

8 ADABIY AYVON

Stiv KELLI

ERTAGA

Bir erkak ayoliga gul sovg'a qilayotganini ko'rib, Juliyaning havasi keldi. U eriga tikilib:

– Menga gul sovg'a qilma-ganingizgayam, mana, ming yil bo'ldi, – ma'yus so'zladi ayol.

– Yo'g'-e, o'n besh yil degin, xotinjon, axir to'yimizga endigina o'n besh yil to'ldi-ku! – hazillashdi erkak.

– O'n besh yil...

Juliyanning peshonasidan o'parkan:

– Ertaga gullarning eng sarasini senga sovg'a qilaman! – dedi eri ishonitirib.

Biroq ertaning ertasi kelishini ayol yana o'n besh yil kutdi. Norman har gal gul do'koni yonidan o'tayotganida hamisha bir gapni ko'nglidan o'tkazardi: "Biron kun, albatta, xotinimga guldasta olib boraman!"

Mana, o'sha kun bugunga nasib qilgan ekan. U nihoyat va'dasining ustidan chiqdi. Guldastani oldi-yu, uni ayolining sovuq qabri ustiga qo'ydi.

QAYTAR DUNYO



Stiven MAKDONALD

U yosh va kelishgan zobit edi. Uylanishiga bir kun qolgandi. Qallig'ini kuzatib qaytayotganida istirohat bog'i yonidagi do'konga uch jinoyatchining bostirib kirganiga ko'zi tushdi. Ana xolos, xizmatchilik, bu noma'qulchilikka ko'z yumib o'tib ketib bo'lmaydi. U ertaga to'yi ekanligini ham unutib, talonchilarni qo'lga olishga oshiqdi. Bari ona suti og'zidan ketmagan go'daklar, uchovini ham bir deganda tinchitadi. Biroq chuchvarani xom sanagan ekan. Dushmanni nazar-pisand qilmagani uchun ham bugun u bir umrga to'shakka mixlanib yotibdi. 15 yoshli Jons zobitga uch marta o'q uzdi va o'sha lahzadayoq uning orzulariga nuqta qo'ydi.

Sevgan yori nogiron er bilan yashashni istamay, undan yuz o'girib ketganida ham zobitning hayotdan ko'ngli qolgani yo'q. U har kuni qamoqdagi Jonsga xat yo'llaydi. Nomalari ham javobsiz emas. Qilgan ishidan pushaymon yigit panjaradan ozod bo'lishi bilan nogiron zobitni borib ko'radi, unga g'amxo'rlik qiladi va eng asosiysi, u boshqa hech kimga o'q uzmaydi. Jons birovga o'q uzmaydi, biroq qurboniga bergan ikki va'dasini bajarishga ulgurmaydi. Ezgulikka ishonib, unga xizmat qilishga bel bog'lab, ozodlikka chiqqan yigitni qamoqxona eshigining oldida mashina urib ketdi va u ham endi umrining so'ngigiga qadar nogironlar aravachasiga mixlandi.

Qaroqchi



– Bugun bog'chada nima haqida suhbatlashdinglar? – har kungi odati bo'yicha so'radi buvi nabirasidan.

– Bog'cha opamiz "Katta bo'lganda kim bo'lasiz?", deb so'radilar. Saodat "bog'cha opa" bo'larkan. Botir uchuvchi bo'larkan...

– Sen-chi, sen kim bo'lasan? – so'radi buvi.

– Men qaroqchi bo'laman!

– Iye, bu nima deganing?

– Katta bo'lsam, qo'rqmas qaroqchi bo'lib, do'konlarga hujum qilaman. Do'konlardagi hamma aroqlarni bitta qoldirmay sindirib tashlayman!

– Keyin-chi? – kulimsiradi buvisi.

– Keyin dadamlar har kuni aroq ichib kelib, janjal qilmaydilar. Oyijonim bo'lsa, yig'lamasdan kulib yuradilar...

Hayot

U oliyohdan so'ng qishloqqa keldi. Ikki-uch yil shu yerda yashadi, ishladi. Suvday singib ketolmadi.

– Bu yerda madaniyat yo'q, ona! – dedi xomush.

Shaharga ketdi. Naq besh yil istiqomat qildi. Yana bo'lmadi.

– Endi nima yetishmayapti? – so'radi ona.

– Bu yerda mehr-oqibat yo'q, onajon! – dedi yigit hafsalasi pir bo'lib.

– To'xtal! – dedi ona. – Sen qishloqqa o'zing madaniyat tarqatdingmi?

– Yo'g'e, – nima deyapsiz?...

– Shaharda-chi? Birortaga mehr-oqibat ko'rsatdingmi?!

– ...

– Shunaqa! Agar uddalasang, bularni o'zing boshqalarga hadya qil! Ham savobini olasan, ham mahsulini! Saodati esa boqiyda nasib etadi...

Sohiba G'AYBULLA qizi

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan

ISSN 2010-7897

Bosh
muharrirAsliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov

Furqat Tojiyev

Xayotjon Klichev

Sevara O'rinboeva

Yorbek Iskandarov

Diifuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Xurshid Sultonov

Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch"
ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter ba-
zasida teridi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq
hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.

Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraj – 3570
Buyurtma – 2137

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18

Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5